

Yoshlarni qay usulda o'qitish, ularni tarbiyalash, mustaqil mamlakatning yetuk mutaxassislari bo'tishiga qayg'urish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Islom KARIMOV



Tong

# YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan



## BOLADEK BEG'UBOR YURT

Ozod yurtning erka farzandi, ko'rki va kelajagi aziz bolalar, qadrdon ukajonlar!

Biz tarixiy kunlarda yashayapmiz, hali bu kunlarning har bir daqiqasi haqida juda ko'p va xo'p yozishadi. Zero, bugunning mas'uliyatini teran anglab, yurt va xalq xizmatiga yaragan inson borki, sharaf topadi. O'shanda muxbirlar ham: «Bu odam yurt va xalq uchum ko'p yaxshi ishlar qilgan», deya uning to'g'risida kattakatta maqolalar yozishadi. El esa bunday kishilarni botir va qahramon sifatida e'zozlaydi. Lekin bunga erishmoq oson emas.

Sen bugun yurtingga boq. Shu ozod va aziz Vatan o'n olti yoshga to'lib, jahon uzra ezgulik sari qanot qoqmoqda. U o'z osmonini hamisha musaffo bo'tishini, har bir kuni bayramdek o'tishini, sen kabi bolakaylari o'z bag'rida emin-erkin yashab bilim olishini va kelajakda komil inson, yirik mutaxassis bo'lib, buyuk ajodlari kabi insoniyatga xizmat qilishini istaydi. Bu qanday ulug' va olyjanob niyatlar ekanligini o'zing yaxshi bilasan.

Sen yurtda bo'layotgan ishlarga bir nazar sol. Shu o'n olti yilda sen o'qiydigan maktab qayta qurildi, qayta jihozlandi. Sen uchun yangi kollej, akademik litseylar, institut, universitetlar tashkil etildi, o'quv dasturlari yangilandi, qo'lingda bugun sifatli kitoblar, yoningda kompyuter, xullas, imkoniyatlar keng va juda ko'p. Bu imkoniyatlar kimlar uchun? Albatta, sizlar uchun!

Qalbing kabi beg'ubor yurt bu. Unga havas qilganlar ko'p va hozir ham uni bir ko'rishga orzumand xorijiy yoshlar, kattalar minglab topiladi.

Bu bag'rikeng va boy o'lka. Yurtlar bor, bitta daraxt o'stirish qilyin. Yurtlar bor, tog'-u toshdan boshqa hech vaqosi yo'q. Sening yurting esa to'rt mo'jizasi, mingminglab yer osti va yer ustidan boyliklari mayjud bo'lgan sehrli dunyo. Uni faqat sevmoq va avaylamoq kerak. Ammo bu ham oson ish emas.

Davomi 2-betda.

16



# Bayram maktublari



*Aziz bolajonlar! Hademay eng ulug', eng aziz bayramimiz sovg'a tariqasida ko'plab binolar, ko'priklar, sport inshootlari, yangi maktab va litseylar, mahalla guzarlari foydalanishga topshirilmogda. Eh-he, sanayversak, adog'i ko'rinnmaydi. Sizning viloyatingizda tengdoshlarinidan kelayotgan maktublar mazmuni ham asosan bayram xususida. Xo'sh, bolajonlar, qanday ishlar amalga oshirildi? Shular haqida bizga maktub yo'llang. Xatlarinizi kutamiz.*

## KUYLA, DILKASH DUTORIM!

Men Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 34-maktabning 9-«V» sinfiga «a'llo» baholarga o'qiyman, – deb boshlabdi xatini tengdoshingiz Maftuna MANSUROVA. – Musiqa ustozim Ozoda opa Bo'riyevadan dutorda mumtoz musiqalar chalishni mukammal o'rgannoqdamani. Mustaqillik bayrami arafasida maktabimizda o'tkaziladigan tadbirda ulardan birini chalib, barchani ko'nglini xushnud etmoqchiman. Oyijonim Mahfuza opa Nosirova tumanimizdagagi 35-maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars beradilar. Ular ham o'quvchilariga o'tdigan ilk saboqlari – Mustaqillik darsiga hozirdanoq tayyorgarlikni boshlab yuborganlar. Onam izidan borib, kelajakda yosh avlodga musiqadan dars bermoqchiman. Tilagim, yer yuzidagi barcha bolalar baxtli bo'lishsin, Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!



## CHARCHAMA, MURG'AK YURAGIM!

Bilasizmi, dunyodagi eng oliy tuyg'u nima? Bu – ona Vatan tuyg'usi. Shu tuyg'u bilan limmo-limdir insonning qalbi. Yurtga muhabbat tuyg'usi bilan uradi uning yuragi. Yurtimni qanchalar madh qilmay, kamdek tuyulaveradi, nazarimda. Uni kuylab sira charchamaydi murg'ak yuragim. Aziz Vatanim! Mustaqilligining 16 yoshing muborak bo'lsin! Bag'ringda biz yosh avlod erkalanib voyaga yetaylik. Birga odimlab, koringga yaraylik.

Barno JUMAYEVA, Jizzax viloyati,  
Zafarobod tumanı



*Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanidagi 10-maktab o'quvchisi Azizaxon Ibdullayeva barcha tengdoshlari singari maktabini sog'ingani chizgan rasmidan ham ko'rini turibdi, shundaymasmi?*

Davomi. Boshi 1-betda.

Uni sevmoq uchun qadriga yeta bilish ham lozim.

Bedil aytadi:

Kimki g'animat deb vatandan ko'char, Boshqaga ham ko'ngil qo'yolmay o'tar. Uchqun toshdan ajrab chiqqanidan so'ng, Qancha ardoqlama, bari bir o'char.

Bu to'rtlikda katta ma'no jamlangan. Uni o'qigan sari turli xil ma'no topish mumkin. Chunonchi, Vatanni ardoqlaganning o'zi ardoqda yashaydi.

Shu aziz yurtimizni ardoqlab, uning nomini jahonga taratayotgan opa-akalaringga o'zing ham havas bilan qarayapsan. O'n olti yoshli yurt senga ishonadi. Sen ham ular kabi a'llo o'qisan, chuqr bilim olib, yetuk inson bo'lib, el-u yurtga xizmat qilasan.

Bizning jamoamiz ham sen uchun mehnat qilayapti. Bu to'g'rida yozsak hisobot bo'lib qoladi. Ammo bitta yangilikni aytish mumkin. Adiblarning

## DUGONAM CHIZGAN RASM

Men Toshkent shahridagi fayzli xonardonlardan birida yashayman. Kattagina oilamizga Xolmatjon xoji ota boshlar. U kishi menga istiqlol sharofati bilan yurtimizda ro'y berayotgan ijobiyo o'zgarishlar haqida so'zlab, avvalgi sharoitlar bilan hozirgilarini solishtirib o'tiradilar.


Yaqinda bobojonim bizni shahrimizning diqqatga sazovor joylari bo'ylab sayohatga olib chiqdilar. «Ezgulik arkasi», «Baxtiyor Ona» monumenti haqida gapirib berdilar.

Bobomning hikoyalaridan ta'sirlanib, Yakkasaroy tumanidagi 118-maktabda o'qiydigan dugonam Dilrabo Do'stqobilova «Baxtiyor Ona» rasmini chizibdi.

Aziza AKBAR qizi, poytaxtdagi 249-maktab o'quvchisi



## BOLADEX BEG'UBOR YURT



ko'plari Sen uchun yangi roman va qissalar yozib berishni va'da qilishdi. Ularning ba'zi birlari tahririyatimiz sandig'iga kelib tushdi va biz ularni o'qib, rosa miriqdik. GAZETAMIZNI kuzatib bor va bu asarlarni o'qib, ulardan boy taassurotlar ol.

Hammangizga bayramingiz muborak. Asaldek shirin, Bog'i Eramdan ham go'zal, beg'ubor, jonajon yurtimiz yoshiga yosh qo'shilsin. Barchamiz unga munosib farzand bo'lishga harakat qilaylik.

O'z muxbirimiz

Bizning suhabat

# KITOBBLARGA SIG'MAGAN DUNYO

*Muxbirimiz O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Bosh direktorining birinchi o'rinosari O'tkur Parmonovich Jo'rayevga quyidagi savollar bilan murojaat qildi:*

**- O'zbekiston Mustaqilligining 16 yilligi arafasida respublikamiz noshir va matbaachilarimiz kitobxonlarga qanday sovg'alar tayyorladilar?**

Istiqlol ayyomini noshir va matbaachilarimiz bu yil yana-da quvonchli yutuqlar bilan kutib olmoqdalar. Umumta'lim maktablarining o'quvchilari uchun mo'ljallangan rejadagi 165 nomdagi yangi darsliklarning barchasi o'zbek, rus, qoraqalpoq, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman tillarida chop etilib bo'lindi. 14 million nusxadagi darsliklar joylarga yetkazib berildi.

Bu yilgi darsliklar yana-da chiroqli, zamonaliviy dizayn asosida bezatildi va eng sifatlari qo'szlarga bosildi.

Shuningdek, nashriyotlarimiz tomonidan rang-barang mavzularidagi ko'plab badiiy adabiyotlar, «Toshkent – Islom madaniyati gavhari», «Samarqand – 2750» singari rangli albomlar chop etilib, o'quvchilarga yetkazib berildi. Bular o'g'il-qizlarimizga va ularning ustozlariga manzur bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Bayram arafasida Moskvadan xushxabar oldik. Bu yerda har yili o'tkaziladigan «Kitoblar san'ati» xalqaro tanlovida qatnashgan

nashriyotlarimiz sovrinlar bilan qaytishdi.

Cho'lpox nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi jamoasi tomonidan tayyorlangan «Ertaklar karvon» kitobi hamda «Ma'naviyat» nashriyoti tomonidan Qarshi shahrining 2700 yilligiga bag'ishlab tayyorlangan «Qarshi» fotoalbomi birinchi o'ringa sazovor bo'ldi.

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti tomonidan tayyorlangan «O'zbekiston fotografiyasi 125 yoshda» ikki jildlik fotoalbomi sovriniga ega bo'ldi.

Yutuqlar o'zimizni, biroq, kamchiliklarimiz ham yetarli. Kezi kelganda aytishimiz joizki, ba'zi xususiy nashriyotlarimiz ixtisoslashuviga yetarli e'tibor qaratmayotir. Ayniqsa, ayrim nashriyotlar ixtisoslashuvi bo'yicha bolalar adapbiyotiga oid kitoblar nashr etish bo'lsa-da, bu masala noshirlarimiz diqqatidan chetda qolmoqda.

Istardimki, har bir nashriyot avvalo, ixtisoslashuvidan kelib chiqib, mazmunga boy va sifatlari adaptiyotlar nashr etsalar, barcha kitobxonlar, xusan, bolalarimiz uchun ham salmoqli sovg'alar bo'lardi.

**- Kitobga oshno bo'lgan kishi hayotdan go'zallik topadi. Shunday**



**emasmi?**

Bolaligimning quvnoq damlari turfa xil kitoblar orasida o'tdi. Ana shu oshnolik meni ijodkorlik sari yetaklagan bo'lsa, ne ajab??

Ko'plab ijodkorlar, shoir-u baxshilar yetishib chiqqan yurt farzandiman, axir, Halihanuz kitobga mehrim baland.

Aziz farzandlarimizga ham ana shu oshnolikni tilayman. Kitob beba boyligimiz, undan-da donoroq, qadrliroq do'st topilmaydi. Zero, kitob o'qigan bola qalbi go'zallikka oshufta bo'ladi.

**- «Tong yulduzi» o'quvchilariga bayram tilaklariningiz.**

Farzandlarimizning sevimli gazetasini «Tong yulduzi» o'quvchilarini avvalo, Mustaqilligimizning 16 yilligi bayrami bilan chin dildan qutlayman. Ularning har birida iqtidor, iste'dod borligini qadrlayman. Diyormizda buyuk ajdodlarimizga munosib ko'plab iqtidorli avlodlar yetishib chiqishiga, ular mamlakatimiz dovrug'ini dunyo hamjamiyatida yana-da yuksaltirishga tilakdoshman. Ezguliklar sizni tark etmasin.

## «VATAN ICHRA MO'JAZ VATANIM» INSHOLAR TANLOVI YAKUNLANDI

Aziz o'quvchilar, yodingizda bo'lsa, fevral oyida gazetamiz orqali Mustaqilligimizning 16 yilligiga bag'ishlab «Vatan ichra mo'jaz Vatanim» nomli insholar tanlovi e'lon qilingan edi.

Tanlova respublikamizning deyarli barcha viloyatlaridan juda ko'plab maktublar keldi. Ularning aksariyati gazetamiz orqali e'lon qilindi. Gazetada e'lon qilinmaganlarini ham tahririyatimiz xodimlari bilan birlgilikda o'qib chiqdik va quyidagi o'quvchilarni tanlov g'olib deb topdik:

**1-o'rin – Bunyod DAVRONOV, Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 36-maktabning 5-«V» sinf o'quvchisi, «Zomin» nomli maqolasi uchun;**

**2-o'rin – Hilola RO'ZIYEVA, Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 181-maktabning 9-«V» sinf o'quvchisi, «Xaritada o'z o'rni bor» maqolasi uchun;**

**3-o'rin – Jobir ISMATULLAYEV, Qashqadaryo viloyati, Koson tumani, Mirzo Ulug'bek nomli ixtisoslashgan maktab-internatning 9-sinf o'quvchisi, «Kosontepa tarixi» maqolasi uchun.**

G'olib o'quvchilar «Tong yulduzi» tahririyatini tomonidan «Faxriy yorliq» bilan taqdirlanadilar.

Shuningdek, tanlova maktub yo'llagan barcha o'quvchilarga o'z minnatdorchiligidimizni bildiramiz.

## MAKTABIMNI SOG'INDIM

*Aziz bolajonlar! Qadrdon maktabingizni sog'ingan bo'lsangiz kerak-a? Ha, deysizmi?! Barakalla! Yozgi ta'tilda kuch-g'ayratga to'lib, darslarga sho'ng'ib ketishingiz kerak, axir.*

Siz mustaqillik davrining baxtli bolalarisiz, «Oyijon, qachon maktab boshlanadi, maktabni sog'inib ketdim», deb har kuni kattalarga xarxasha qilayotgan tengdoshingizning gaplaridan quvondim. Toshkent shahri, Shayxontohur tumanidagi 34-maktabning 3-«G» sinf o'quvchisi Robiya XAYRULLAYEVA:

– Yozgi ta'tilda mazza qilib dam oldim. Har kuni oyijonim bilan bir-ikki soat dars ham qildik. Meni ko'rib singlim: «Men-chi, qachon maktabga boraman, men ham maktabni sog'indim», dedi. Unga maktab haqida gapirib berdim.

**Sizningcha, mustaqillik nima, Robiyaxon?**


Kitobimda o'qiganman, 1991-yil 1-sentabrda bizning davlatimiz mustaqillikka erishgan. Shuning uchun bizning o'z Bayrog'imiz, Gerbimiz, Madhiyamiz bor. Biz 1-sinfga kelganimizda ular haqida o'qib, yodlab olganimiz. Hali maktabda birinchi qo'ng'iroq bo'lganida madhiyamizni aytamiz. Buvimlar: «Sizlar mustaqillik davrida yashayapsizlar, erkin o'qib unyapsizlar», deydilar. Demak, mustaqillik erkinlik degani-da!

Kichkina suhabatimizdan keyin tillari biyron bu qizaloq singlisiga maktabga tayyorlab qo'yan o'quv jihozlarini maqtana ketdi. Uning maktabga shoshgani yaxshi. Bilimga chanqoqligi esa yana-da quvonarli.

**Sayyora JO'RAYEVA**



# MUSTAQILLIK TENGDOSHI: BUGUN U TALABA!



## DAVLAT MUKOFOTI SOHIBASI

Mustaqillikka tengdosh Dilafro'z Usmonovani ko'pchiligidan yaxshi taniyisiz. Chunki uning dolzarb mavzudagi ko'plab maqola va xabarlar, she'riy mashqlari gazetamizda chop etilgan. O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi akademik litseyning 1-bosqichini tamomlagan Dilafro'zda adabiyotga, she'riyatga, san'atga bo'lgan ishtiyoq juda erta uyg'ondi.

She'rlari barcha bolalar nashrflarida chop etiladi. O'tgan yili «Umidlar qonotida» nomli she'riy to'plami nashrdran chiqdi.

U «Kamolot» YOIH yetakchisi. O'qishdan, ijoddan ortib, sportning basketbol turi bilan muntazam shug'ullanadi, rus va ingliz tillarini mukammal o'rganishga ham fursat topayotgan Dilafro'z bu yil «Zulfiya» nomidagi Davlat mukofoti sohibasi bo'ldi. Yaqinda fuqarolik pasportini olib, bu to'g'risida yozishga ham ulgurdi.

*Bizlarni kutmoqda porloq kelajak,  
Bo'laylik barimiz abad yelkadosh.  
Xalqimiz koriga biz kamarbasta,  
Vatan ishonchini oqlaylik tengdosh! – deb yozadi Dilafro'z yana bir she'rida.*



## KOMILA KOREYADA O'QIYDI

– Oyijon, dugonam Komila Koreyada o'qib kelarmish, – deb qoldi qizim bir kuni. – Ta'llim grantidan yutibdi.

– U nima deganing, qizim? – ajablandim men.

– Bu ham bir imtihondek gap. Uni a'loga topshirganlar chet davlatlarda bir yil bepul tahlif olib qaytishadi.

– Voy, qizi tushmagur-ey, o'zga yurtlarda qanday yasharkin-a? Bir-ikki haftamas, bir yil-a?

– Oyijon, vahima qilmasangiz-chi, qaysi zamonda yashayapsiz, axir?! Hozir Komilaga o'seziganlar juda ko'pchilik-ku. O'zi uchta tilni bildi, to'inchisini ham o'rganib, bilimini yana-da boyitib keladi. O'zga yurtlarning tarixi, madaniyati, odamlarining hayot tarzi bilan tanishadi...

Vaqmi o'tishini qarang, ana shu suhbatimizga ham bir yil bo'libdi-ya. Komila Koreyadan bir olam taassurotlar bilan qaytibdi. Endi mahalla kichikintoylariga, dugonalariga koreys tilini o'rgatayotganmiss.

O'quvchilik yillarimizda biz bunday imkoniyatlarni hato orzu ham qilolmasdik. Zamonomiz zaylidan aylanay!

ZAMONBEKA

## ULAR GROSSMEYSTER BO'LMOQCHI

Bolalar, sport olamining ham har bir turida o'z ustalari bo'ladi. Shuningdek, shaxmatdayam barmoq bilan sanarli qirollari bor. Ularni grossmeysterlar deyishadi.

Sizlarga hikoya qilmochi bo'lgan shaxmatchi qizlarimizning orzusi ham grossmeyster bo'lish ekan. Farg'onalik Hulkar Tohirjonova va Nafisa Mo'minova shu kungacha shaxmat olamida talaygina yutuqlarni qo'lg'a kiritganlar. Istiqolga tengdosh bo'lgan Hulkar 16 yoshda.

Yaqinda poytaxtimizda yoshlar o'tasida o'tg'an shaxmat bo'yicha Osiyo championatida ham Hulkar O'zbekiston terma jamoasi tarkibida ishtirok etib, mutaxassislarda yaxshi taassurot goldirdi.

Uning Tohirjon bobosiyam, dadasi, amakilar va ammalari ham shaxmatni yaxshi biladilar. Biroq, oilaviy shaxmat ixlosmandlari orasidan shu paytgacha professional shaxmatchi chiqmagandi. Istiqol bergan imkoniyatlar tufayli esa bugun bu oilidan Nafisa Mo'minova va Hulkar Tohirjonova hozirga qadar uch marta o'z tengqurlari orasida g'olib chiqishga erishdilar. Masalan, o'tgan yil 16 yoshgacha bo'lgan qizlar o'rtasidagi O'zbekiston championatida 9 imkoniyatdan 7,5 ochko bilan 1-o'rinni egallagan Hulkarning natijalari yana bir karra shaxmat olyosi bo'lishga zamin yaratdi. 2007-yilning fevral oyida bo'lib o'tgan O'zbekiston championati 1-ligasida 9 imkoniyatdan 6,5 ochko to'plab, olyi ligaga yo'ilanma oldi. Shaxmatchi qizlar yurtimizning 16 yilligini munosib kutib olgach, ularni bir qator nufuzli musobaqaqlar kutyapti. Hulkar va Nafisa opangiz hozirda joriy yilning oktabr oyida Toshkentda o'tadigan jahon championating mintaqaviy saralash musobaqasiga hozirlik ko'ryapti. Keyin esa ular Myanmar davlatida bo'lib o'tadigan Osiyo o'yinlarida qatnashadilar. Noyabr oyi esa ularning safari Turkiyaga rejalashtirilgan.

Biz opa-singil shaxmatchilarning yuqoridagi natijalariga juda havas qildik. Asosiyasi, grossmeyster bo'lishlariga hecham shubha qilmadik. Siz-chi, aziz bolajonlar?!

Ma'mura MADRAHIMOVA


## QONUN HIMOYACHISI BO'LAMAN

Sanobar LUTFULLAYEVA,

Toshkent 1-sonli Yuridik kolleji talabasi:

– Men yoshligindan huquqshunos bo'lishni orzu qillardim. Har bir masalaniadolat hal etishni xohlayman. Shuning uchun ham ota-onam, ustozlarim bo'ljak huquqshunos deyishadi.

Bugun esa orzuim ro'yoga chiqdi. Men Yuridik kollejining huquqni himoya qilish yo'naliishi bo'yicha tahlil oladigan bo'ldim. O'ta maktabni qizil shahodatnomalar bilan yakunladim. Birinchilardan bo'lib talabalikka qabul qilindim. Bundan keyin ham a'lo baholarga o'qib, yurtimga halol xizmat qiladigan inson bo'lishga harakat qilaman.



## BILIMLIGA DUNYO KENG

Alisher ABDULLAJONOV,

Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti qoshidagi

S.Rahimov akademik-litseyi talabasi:

– Bir tilni bilgan bir inson, ikki tilni bilgan ikki inson, deyishadi donolar. Men ham til o'rganishni juda yaxshim, ko'raman. Bugungi kunda rus, ingliz tillarini puxta o'rgandim.

Litseydag'i o'qish davrida esa xitoy, yapon, arab tillarini mukammal o'rganish niyatidaman. Kelgisida dunyo kezib, yurtim sha'nini, uning obro'sini yuksaklarga niyatidaman. Kelgisida dunyo kezib, yurtim sha'nini, uning obro'sini yuksaklarga niyatidaman. Kelgisida dunyo kezib, yurtim sha'nini, uning obro'sini yuksaklarga niyatidaman. Ayni kunlarda akademik-litseyda obodonlashtirish va ko'tarishga xizmat qilaman. Ayni kunlarda akademik-litseyda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari bilan bandmiz. Shu bahonada litseydagi ustozlar-u talabalar bilan yaqindan tanishyapmiz, do'stlashyapmiz.



## SHIFOKORGA ISH QOLMASA DEYMAN

Shahlo MUSAKOVA,

II Respublika Tibbiyot kolleji talabasi:

– Buvijonim shifokorlar. Tanish-bilishlar-u mahallamizdagilar ularga o'z sog'iqlari haqidagi tez-tez murojaat qilib turishadi. Doimo hammaga keraklar, barcha ulardan minnatdor. Yoshligindan buvijonimning mas'uliyati va mashaqqatlari mehnatlarini ko'rib, shunday xulosaga ketdimki, men ham shifokor bo'lib, barchaga foydalam tegsa. Va yurdoshlarim hamisha sog'lam, baqvavat bo'lsa. Hatto shifokorga ish qolmasa deyman.



## VATANNI BILIM VA MEHNAT OBOD QILADI

Nozima UBAYDULLAYEVA,

Jahon tillari qoshidagi akademik-litseyi talabasi:

– Litsey talabasi bo'lganimdan juda xursandman. O'qishni, o'rganishni yaxshi ko'raman, ko'p tillarni puxta bilishni juda-juda xohlayman. Ayniqsa, ingliz, coreys tili menga yodagi va shu tillar bilan juddiji shug'ullanish niyatidaman.

Ota-onam, Vatanim uchun halol mehnat qilib, yuzim yorug bo'lsa, deyman. Aytishadiku, Vatanni bilim va mehnat obod qiladi, deb.

FERUZA yozib oldi



## QASHQADARYO

Assalom, ey, jon desam,  
jonin bergan jondosh elim!  
Amir Temurdek dahoga,  
elat bo'lgan qondosh elim!  
Sen Muqanna, Dehlaviysan,  
Bedil, Mavlonzodasan.  
Salom, Istiqlol quyoshin,  
nurlariga yo'ldosh elim!  
Bibixonim allasidan,  
ulg'aygandir bolalaring.

Oqsaroying bo'ylariga,  
bo'yi yetmay loldir dunyo!  
Sahroda gul undirorgan,  
sahrodayin bag'ri kengim.  
Menga baxt-u iqbol berding,  
talpinadi senga ko'glim.  
Onajonim – onalarga,  
yozayapman dilda borin.  
Ko'zmunchog'ing bo'lay o'zim,  
o'zim bo'lay ko'z tumoring!

*Gulbahor JUMAYEVA,  
Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi  
98-maktab o'qituvchisi*

## U QALBDAN BOSHLANADI

Nuroniy otaxondan:  
– Vatan nima, – deb so'rashibdi:  
– Kindik qonim to'kilgan tuproq. Ajdodlarim mangu uyquga ketgan  
makon, – debdi u.

Yigitdan so'rashibdi, u:  
– Men suyib, suyanib yurgan bog'-rog'lar, sharqiragan soylar,  
menga ishonib topshirilgan muazzam zamin.  
Boladan so'rashibdi:  
– Vatan nimadir?  
– Bobom ekkan chinor ostida ko'z ochgan buloq, momom urchuq  
yigiradigan supa, onam non yopayotgan tandir, men ulg'ayayotgan  
ostona, – debdi bolakay.

Vatanni har kim turlicha tushunadi. Aslida u qayerdan boshlanadi?  
Bu savolga ko'pchilik, ostonadan, deya javob beradi. Menga qolsa, u  
qalbdan boshlanadi, degan bo'lardim.

*Diyor SharopoVA,  
Samargand shahridagi 46-maktab o'quvchisi*

ORZULARIM  
OSMONDIR MENING

Istiqlol tengdoshiman,  
Orzularim juda mo'l.  
Jo'shar misoli to'lqin,  
Pisandmas daryo-yu ko'l.  
Baxtimizga onalar,  
Dunyo turguncha tursin.  
Bag'rida bolajonlar,  
Sog'-omon, quvnab yursin.  
Ozod yurtim koriga,  
Yaraydigan qiz bo'lay.  
Shoira Zulfiyaga,  
Munosib bir iz bo'lay.



*Umida NORQULOVA,  
Samargand viloyati, Payariq tumani*

KO'Z TEGMASIN,  
DIYORIM, SENGА!

O'zbekistonimizni 16 yoshli navqiron o'spiringa  
qiyyoslagim keladi. Xuddi ulardek yurtimning ham  
qalbi orzularga limmo-lim, rejalarini bisyor. Ezguliklar  
yo'ilidagi g'ayrat-u shijoatiga ko'z tegmasin  
yurtimning!

*Yo'q, sevmayman chiroying uchun,  
Hatto cho'ling ardoqli menga.  
Tinchligingni tilayman har kun,  
Ko'z tegmasin, diyorum, senga!*

*Odinaxon ASHUROVA,  
Farg'ona viloyati, Quva tumanidagi  
34-maktabning 9-«B» sinf o'quvchisi*

## Istiqlol ilhomlari

## LATIF SHAHRIM

Qadimdan deyishar: Ho'qand-u latif,  
So'zlar yog'dusida porlagan makon.  
Askiya san'ati etarkan ta'rif,  
Lutf-u karam bilan mashhurdir Qo'qon.  
Vodiya tanhosan, dilda yashaysan,  
Muqimiy ash'ori bitilgan shahar.  
Izzat-u ikromni doim qo'llagan,  
Nodira she'rarin tinglasam agar.  
Ta'rifingni aytay yurak-yurakdan,  
Suyukli makonim, mudom faxrimsan.  
Qadim ajdoddardan qolgan mero sim,  
Dunyoga mashhurim – go'zal shahriman!



*Mohinur MUHAMMADJONOVA,  
Farg'ona viloyati, Furqat tumanidagi  
14-maktabning 7-sinf o'quvchisi*

UKALARIM  
KULGUSIDA KO'RAMAN

Uni desam, qalbim quvonchga, dilim iftixorga to'lib ketadi. Men  
Vatanni bobojonim duolarida, buvijonim so'zlagan ertag-u  
rivoyatlarda, otajonim mehrida, onajonim allasida, ustozlarim bergan  
ilm-u ummonda, qolaversa, ukalarimning shaloladek sof, qo'ng'iroy  
kulgularida ko'raman.

*Shahruza NASULLAYEVA,  
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumani,  
Bobog'ozi qishlog'i*

## TO'Y YARASHAR YURTIMGA

O'zbekiston bag'rida,  
Yashaymiz shod, baxtiyor.  
O'qib, hunar o'rganish  
Uchun imkonlar bisyor.

Vatanim chiroyiga,  
Havas bilan qarashar.  
Osoyishta bu yurtda,  
To'ylar qilsak yarashar.



*Kamola HUSNIDDINOVA,  
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi  
106-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi*

VATAN -  
MUQADDAS  
ONAM

O'tdi qancha zamonlar,  
Baxt izlagan karvonlar.  
Ko'm-ko'k bo'lib osmonlar,  
Ushaldi ko'p armonlar.  
Zarhal harflar bilan,  
Yozdik go'zal nomingni.  
Do'stlarga peshvoz chiqdik,  
Ko'tarib tuz, noningni.  
Yer degan sayyoraning,  
Yuragidadir joying.  
Ko'zga surtsak arziydi,  
Sening muqaddas poying.

*Abdulaziz MAMADALIYEV,  
Andijon viloyati, Baliqchi  
tuman, Cho'nqayma qishlog'i*

AVLODLAR  
OLDIDA  
BURCHLIMIZ

Dunyoda ikki narsani – ota-onani  
hamda Vatanni tanlab bo'lmaydi. Ular  
qanday bo'lishsa, shundayligicha  
sevishimiz, ardoqlashimiz lozim.

Osmoni musaffo, suvlarizi zilol,  
mevalari bol go'shani bizga mero  
qoldirishgan ajdoddarimiz. Shunday  
ekan, bizdan keyingi avlodlarga ham  
uni shundayligicha yetkazishga  
burchlimiz.

*E'zoza SOLIJONOVA,  
Sirdaryo viloyati,  
Guliston shahri*



Yosh san'atkorlar

## «YAXSHIGINA OVOZIM BOR...»

Tahririyatimizga kelgan bu yigitcha hammaning diqqatini tortdi.

— Gazetangizga men haqimda ham yozasizlarmi? — deb so'radi dabdurustdan.

— Albatta, axir gazetamiz bolalar va o'smirlar gazetası-ku!

Biz u bilan tanishib, quyidagilarni bilib oldik:  
Uning ism-sharifi Ulug'bek Yusupov bo'lib, u Glier nomidagi Respublika maxsus musiqiy akademik-litseyini bitirgan. Qo'shiq aytish sirlari bilan birga rubob chalishni ham mukammal o'rganib olgan.

— Asli maqsadim o'qituvchi bo'lish, — deydi Ulug'bek, — lekin yaxshigina ovozim ham bor. Xushovoz xonanda Ozodbek Nazarbekovning ijodlariga juda qiziqaman. Nasib qilsa, ularga o'xshab yosh-u qariga baravar yoqadigan qo'shiqlar kuylash niyatim bor.

Shu kunlarda Ulug'bek bastakor Zafar Bobojonov tomonidan bastalangan «Asrolmadim», «Ketma» deb nomlangan qo'shiqlarini qo'shiqsevar xalqimizga havola qilmoqchi.

San'at atalmish koshonaning ostonasida turgan Ulug'bekka zafarlar tilaymiz hamda taniqli qo'shiqchilarimiz qatoridan joy olib, bir-biridan go'zal qo'shiqlar yaratib, el nazariga tushishiga ishonamiz... Axir yaxshi niyatga ne yetsin??

## HAYRATGA CHULG'ANGAN OLAM



Shu yil aprel oyida Parijda bo'lib o'tgan V Xalqaro torli-kamonli asboblar tanlovi g'olibasi Malika

Anomatova bugungi kunning iqtidorli yoshlardan. U Glier nomidagi musiqa maktabining 7-sinfida tahsil olmoqda. O'zbekiston da xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Azat Akbarov Malikaga ustozlik qilmoqda.

Malika 2003-yilda Respublika

miqyosidagi «San'at g'unchalari» tanlovida ishtirok etib, g'olib bo'ldi. Ushbu omadli tanlov ortidan qator muvaffaqiyatlarni yetaklab keldi. Rossiya «Novie imena» xalqaro xayriya jamg'armasi tomonidan tashkillashtirilgan qator tanlovlarida yuqori o'rinnarni egalladi.

Ma'lum bo'lishicha, ana shu jamg'arma o'tkazgan tanlov sovrindorlarining eng saralari V Xalqaro torli-kamonli musiqa asboblari tanloviga taklifnomasi asosida chaqirilgan ekan.

Malika tanlov shartlariga ko'ra o'zi uchun ajratilgan 20 daqiqa davomida dunyoning mashhur bastakorlari Forening «Jaloba», Ayvazyanning «Konsertniy etyud», Gendelning «Lergetto», Vidaldinning «Konsert» kabi asarlarini violonchelda maromiga yetkazib ijro etdi. Shu tariqa o'zbek qizi olamni hayratga chulg'adi.

Faxriddin HAYITOV

## QUVONCHIMSAN – VIOLONCHEL

Nigora yoshligidanoq musiqaga o'zgacha mehr qo'yib ulg'aydi. Oynayi jahon orqali namoyish etiladigan har bir konsert dasturini qiziqish bilan tomosha qilar edi. Opasi Malika pianino chalganda esa Nigora havas bilan: «Meni ham musiqa maktabingizga olib boring», deya iltimos qildi. Qizchaning bu qiziqishiga ota-onasi befarq qaramay, ikkinchi qizlarini ham V.A.Uspenskiy nomli musiqa maktabiga o'qishga berdilar.

— 1-sinfdan 9-sinfgacha sevimli maktabimda o'qib kelyapman, — deydi Nigora faxr bilan. — Shu yillarda davomida violonchel bilan birga pianino chalishni o'rgandim.

Uyimizga mehmon kelsa, Malika opam pianino, men violonchel, singlim Lola esa skripka chalib, mehmonlarni xursand qilamiz. Shu yili Moskva shahrida o'tkazilgan konsert dasturida o'z san'atimizni namoyish etdik. Ushbu konsertda O'zbekistondan Farrux Zokirov, Sardor Rahimxon, Rayhon G'aniyeva va boshqa san'atkorlar ishtirok etishdi. Konsert menga va do'stlarimga katta quvonch bag'ishladi.

Ayni kunlarda Samarqandda o'tkaziladigan «Sharq taronalari»da ishtirok etishimizdan boshimiz ko'kka yetdi. Orzularim – musiqa sir-asrorlarini yaxshilab o'rganib, xalqimiz tahsiniga sazovor bo'la oladigan violonchelchi bo'lish.

Nigoraning orzulari ushalishiga biz ham tilakdoshmiz.

Gulyuz ORIFJONOVA

## VATAN DARSI

Qaldirg'ochlar menga Vatan darsin berdi, Men tingladim ular bergen sabog'i. Ayvonomga ko'ztumordek osib qo'ydi, Oshyon qilib ona yurtning tuprog'ini. Bu holatdan juda qattiq o'ya toldim, Tunlar yotsam, ko'z oldimda turar Vatan. Ey mitti qush, san'atingga qoyil qoldim, Do'stlashaylik, kel, bir umr sening bilan. Eshiklarim sizlar uchun ochiq erur, Qanot qoqib kulbam aro kelavergin. Sen bergen dars menga Vatan darsi bo'lsin, Qancha darsing bo'lsa, yana beravergin.

Ahtamqul KARIM

## ENG, ENG, ENG...

Eng ulkan qandolat pishirig'i badaviylar (ko'chmanchi arablar) to'yida tayyorlangan. O'shanda haqiqiy tuyu bilan teng hajmda «tuya pirog» pishirilgan.

\*\*\*

Eng uzun chuvalchang Shimoliy dengiz qirg'oqlaridagi suvdan topilgan. Ushbu lentasimon chuvalchangning uzunligi 54 metr-u 90 santimetrl edi.

\*\*\*

Eng ulkan sharshara Venesueladagi Anjel Folle sharsharasidir. Bu yerda suv 979,6 metr tik balandlikdan oqib tushadi.

\*\*\*

Eng katta favvara – Favvoralar qirg'og'i (AQSH, Arizona shtati)da joylashgan. Uning bir daqiqalik suv sarfi 26460 litr bo'lib, suvi 170,8 metr yuqoriga ko'tariladi.



Meliyeva Nigora Ilhomovna 1991-yil 13-oktabrda Samarkand shahrida tug'ilgan. V.A.Uspenskiy nomidagi respublika maxsus musiqa akademik litseyining 9-sinf o'quvchisi.

Moskvadan xushxabar keldi

## MUKOFOT OLGAN KITOB



MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi)ga a'zo davlatlarning Moskvada bo'lib o'tgan IV Xalqaro «Kitoblar san'ati» tanlovida nashriyotimizda chop etilgan uchta kitobning nufuzli xalqaro tanlov tomonidan yuksak mukofot bilan taqdirlanishi noshir va matbaachilar faoliyatining dunyo miqyosidagi e'tirofidir.


«Cho'lpion» nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan tayyorlangan «Ertaklar karvoni»



to'plami o'zining zamonaviy bezak, yorqin ranglar jilosi bilan tanlov hay'atida katta taassurot qoldirdi, - deydi xalqaro hay'at a'zosi, O'zbekiston matbuot va axborot agentligi bosh direktorining o'rinnbosari Ro'zimat Safoyev. - Nufuzli ushbu tanlovda o'zbek noshirlarining aynan bolalar uchun nashr etgan «Ertaklar karvoni» kitobi ilk bora yuksak sovranga sazovor bo'ldi. Chunki shu vaqtgacha nafaqat respublikamizdan, balki ko'pgina MDH davlatlaridagi nashriyotlardan ham bolalar uchun chop etilgan kitoblar bunday yuksak o'rnlarga sazovor bo'lgan edi. Bu e'tirofning o'zi mamlakatimizda bolalarga e'tiborning kuchayayotganidan, noshir va matbaachilarning mahorati oshayotganidan dalolat beradi.

Moskvadagi xalqaro tanlovda uchta kitobning sovrindor bo'lishi noshir va matbaachilarimizning Mustaqillikning 16 yilligiga munosib tuhfasidir.

O'z muxbirimiz



## «O'ZBEKISTONIM» AYLANMA KROSSVORDI



Shakldagi belgilangan xonadan soat mili yo'naliishi raqam atrofiga:

- Mamlakatimizdagи nomdosh vodi, tizma tog', daryo va qo'riqxona.
- «Otamdan qolgan dalalar» badiiy filmini suratga olgan atoqli rejissyor, O'zbekiston xalq artisti, san'at arbobi.
- Buxorolik ustoz zardo'z ayol, O'zbekiston Qahramoni.
- O'zbekiston Respublikasidagi Yoshlar ijtimoiy harakati tashkiloti.
- Poytaxtimizdagи XVI asrda bunyod etilgan madrasa, me'moriy obida.
- Vodiya nomdosh oliy tabqa futbol jamoasi.
- Samarqand shahridagi «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali o'tkazilayotgan tarixiy maydon.
- Hududi turli qazilma boyliklariga boy plato.
- Sug'diyonada vatan ozodligi yo'lida Aleksandr (Iskandar)ga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'aloni rahbari.
- Buxoro viloyatidagi tuman.
- Xivaning Ichanal'a majmuidagi XIX asr o'rta larda bunyod etilgan salobatli me'moriy obida.
- O'zbek romanchiligi asoschisi, atoqli adib.
- Sirdaryo va Jizzax viloyatlari hududidagi tekislik nomi bilan ataluvchi tuman.
- «Turkiy guliston yoxud axloq» asari muallifi, ma'rifatparvar adib.
- Vatanimizning eng baland nuqtasida joylashgan xisor tog'i idagi tizma.
- Qashqadaryo viloyatidagi gaz konchilari shahri.
- Daryo, Sirdaryoning o'ng irmog'i nomi bilan

ataluvchi Namangan viloyatidagi shahar.

- Vatanimizning oliy nishonlaridan biri, orden.
- Tashkil topganligining 2000 yilligi nishonlanayotgan Farg'onha vodiyidagi shahar.
- Mustaqillik yillarida ekranlashtirilgan mashhur xalq dostoni.

### MUAMMONOMA

Shakl atrofidagi raqamlarda O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf qalamiga mansub aziz diyorimiz madhiga bag'ishlangan she'riy satrlar yashiringan. Ularni avvalo quyida ta'riflanib, raqamlarda ifodalangan ochqich so'zлarni topib, javoblardagi harflar asosida hal etish bilan bilim oling.

- Bundan 2750 yil muqaddam bunyod bo'lgan shahar, zaminning sayqali - 14, 2, 7, 2, 6, 21, 2, 3, 12.
- Taniqli bokschi, Xalqaro olimpiada o'yinlari championi - 2, 15, 12, 5, 10, 10, 2, 17, 13, 24.
- Abdul Hamid Sulaymon o'g'li Cho'lpion merosiga mansub otashin she'r - 19, 2, 10, 21.
- Vatanimizda ishlab chiqarilayotgan avtomobil markasi - 10, 2, 14, 13, 9, 9, 1.
- Xorazm xalq raqs kuyi - 10, 2, 23, 8, 1.
- Mustaqillik yillarida bunyod etilgan tog'e dovon yo'li - 21, 2, 7, 20, 1, 21.
- Mamlakatimiz janubidagi gaz konchili - 16, 11, 6, 9, 2, 3.
- Obod, chamanzor vodi - 22, 2, 6, 18, 4, 3, 2.
- Endi ushbu satrlar shoirning qaysi she'riga mansub ekanligini toping-chi?

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV



BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOV

**Muassislar:**  
O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lgan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va  
sahifalovchi:  
Fazliddin  
SHOYODGOROV  
  
Navbatchi:  
Ma'mura  
MADRAHIMOVA

Gazeta  
O'zbekiston  
matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

**TAHIR HAY'ATI:**  
Turobjon JO'RAYEV,  
Dilbar ALIMJONOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV  
(«O'zbekiston» NMU Bosh  
muhammarr o'rinnbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muhammarr o'rinnbosari),  
Sobirjon SHARIPOV,  
Ergashvoy SARIQOV.

**Manzilimiz:**  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
**Tel:** 144-27-25 144-63-08  
**Tel/faks:** (99871) 144-38-10  
  
**Rassom:**  
Feruz MATYOQUBOV

**Noshir:**  
«O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
Gazeta «O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
kompyuter bo'limida terib  
sahifalandi va chop etildi.  
Gazeta haftaning dushanba  
kuni chiqadi. Hajmi A-3,  
2 bosma taboq.  
Adadi - 20641  
Buyurtma N: J 3991